



**MAMLAKATIMIZDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI  
MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH CHORA –  
TADBIRLARI**

*Abdulloev Furqat Olimdjonovich*

*AIT “Ipak Yo‘li” banki Umar mintaqaviy filiali*

*“Xo‘ja Axror Vali” ekspress markazi boshlig‘i*

*g-mail: [furkat.abdulloev@list.ru](mailto:furkat.abdulloev@list.ru)*

**Annotatsiya:** Ushbu tezis O‘zbekiston Respublikasida oilaviy tadbirkorlik faoliyati hamda ularni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilayotgan maxsus davlat dasturlari, bu borada davlatimiz va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan olib borilayotgan izchil sa’y – harakatlar, tijorat banklari tomonidan davlat dasturlari asosida ajratilayotgan imtiyozli kredit mablag‘lari hamda ularni amaliyotdagi tahliliy natijalari to‘g‘risdagi ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan.

**Kalit so‘zlar:** Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, o‘zini –o‘zi band qilgan shaxslar, subsidiyalar, tijorat banklari, imtiyozli kreditlar, garov ta’minati.

So‘nggi yillarda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil natijalari joylarda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bu orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, bandlikni ta’minlash, o‘z mehnati bilan daromad topish istagida bo‘lgan fuqarolarga amaliy yordam ko‘rsatish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish ishlari talab darajasida emasligini ko‘rsatmoqda.

Mehnatkash xalqimizning qadimiylashtirishini qidiruvchi kasb-hunar an’analari, ishbilarmonlik salohiyati oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa



tadbirkorlik faoliyati turlarini keng ommalashtirish, ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish uchun katta tajriba va zaxira mavjudligidan dalolat beradi.

Taraqqiyotning hozigi bosqichida O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, aholi bandligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda **oilaviy tadbirkorlik** alohida o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, **Prezidentning 2018-yil 7-dekabrdagi PQ-4038-sonli** qarorida “**Har bir oila — tadbirkor**”<sup>1</sup> tamoyiliga asoslangan yangi tizim joriy etilgani oilaviy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashda tub burilish yasadi. Hozirgi vaqtda tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash uchun turli imkoniyatlar amalga oshirilmoqda. Ulardan biri tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar berishni davom ettirishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvaridagi PQ-39-sonli “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori<sup>2</sup> ga muvofiq mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yoshlar va xotin-qizlar daromadli mehnat bilan band qilish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirish rejalashtirilgan. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “**Har bir oila — tadbirkor**” davlat dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi qaroriga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan:

- 33 million so‘mgacha bo‘lgan miqdorda — o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga (asosiy ish joyiga ega shaxslar bundan mustasno) hamda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan kichik tadbirkorlik subyektlariga har bir mahallaga biriktirilgan hokim yordamchisining tavsiyalari;
- 300 million so‘mgacha bo‘lgan miqdorda — hokim yordamchisining tavsiyalari asosida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan kichik tadbirkorlik subyektlariga uchinchi shaxs kafilligi, sug‘urta polislari, kredit hisobiga sotib

<sup>1</sup> 2018-yil 7-dekabrdagi PQ-4038-sonli qarori “**Har bir oila — tadbirkor**”;

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.01.2023 yildagi PQ-39-son “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”;



olinayotgan mol-mulklar garovi, Jamg‘armaning kafilligi va qonun hujjatlari doirasidagi boshqa ta’minot turlari;

- 300 million so‘mdan ortiq miqdorda — hokim yordamchisining tavsiyalariga muvofiq tadbirkorlik subyektlarining investitsiyaviy loyihalarini kreditlashda qonun hujjatlari doirasida belgilangan ta’minot turlariga asosan ajratiladi.

Bunda, 2020-yil 1-yanvardan boshlab kreditlar AT “Xalq banki”, “Mikrokreditbank” ATB va “Agrobank” ATB orqali O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi bo‘yicha, 2022-yil 1-yanvardan — tijorat banklari tomonidan yillik 14 foiz stavkada berilishi nazarda tutilgan.<sup>3</sup> Oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi shaxslar ushbu imtiyozli kreditlardan foydalanish uchun oilakredit.uz saytidan ro‘yxatdan o‘tib, kerakli hujjatlarni ilova qilgan holda onlayn ariza qoldirishlari kerak bo‘ladi.

Oilaviy tadbirkorlikning eng muhim ehtiyojlaridan biri bu — **moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatidir**. Shu nuqtai nazardan, **tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlar** oilaviy tadbirkorlikning moliyaviy asosini mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunga kelib Xalq banki, Agrobank, Mikrokreditbank kabi banklar tomonidan oilaviy tadbirkorlik subyektlariga **imtiyozli shartlarda kreditlar** taqdim etilmoqda. Ushbu kreditlar ko‘pincha **yiliga 14–16%, hozirgi kunda 17,5% stavkada, 6 oydan – 3 yilgacha imtiyozli davr bilan, 7 yilgacha muddatga** ajratilmoqda. Ba’zi hollarda, mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda garovsiz yoki kam garovli kredit mexanizmlari ham amaliyotga joriy etilgan.

Bundan tashqari, mamlakatimizda Ayol tadbirkorlar uchun banklar tomonidan arzon kreditlar taqdim etilishi rejalashtirilmoqda. Bunda, 2025-yilda 2 mln nafar ayollar bandligini ta’minlash, shundan 1 million 300 ming nafar xotin-qizni tadbirkorlikka jalb etish rejalashtirilmoqda. Buning uchun tijorat banklari tomonidan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun qulay moliyaviy paketlar

<sup>3</sup> <https://lex.uz/acts/-3772869> “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Har bir oila-tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi Qarori;



taqdim etiladi. Qayd etilishicha, ayollarni bezovta qilayotgan eng katta masala ishsizlik hisoblanadi, shu bois xotin-qizlar bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. 2024-yilda bunga 17 trln so'm kredit ajratildi. Ayol tadbirkorlar 81 trln so'mlik mahsulot yaratib, 450 mln dollarlik eksportni amalga oshirdi.

Yurtboshimiz topshirig'iga asosan, 2025-yil 2 million nafar ayollar bandligini ta'minlash, shundan 1 million 300 ming nafar xotin-qizni tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha katta marralar olingani qayd etildi. Buning uchun tijorat banklari tomonidan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun qulay moliyaviy paketlar taqdim etiladi.<sup>4</sup>

"Milliy bank" xizmatlar sohasida kamida 200 ming nafar xotin-qizning loyihibariga ko'maklashadi. "Turonbank" ATB limonchilikda 150 ming nafar ayollar daromad topishi uchun arzon kreditlar taqdim etadi. Xuddi shuningdek, "Mikrokreditbank" ATB parrandachilikda — 160 ming nafar, "Sanoat qurilish bank" ATB sabzavot va ko'chatlar yetishtirishda — 160 ming, "Xalq banki" uzum, brokkoli va mahalliy karam yetishtirishda — 150 ming, "Agrobank" bog'dorchilik yo'nalishida — 144 ming, "Biznesni rivojlantirish banki" ko'kat, bulg'or qalampiri, baqlajon va pomidor yetishtirishda — 94 ming, "Asakabank" farmasevtika va uzumchilikda — 82 ming, "Aloqabank" IT, asalarichilik va mevali ekinlar yetishtirishda 58 ming nafar ayollarni band etishga ko'maklashadi.

Shu maqsadda bu yil mahallalarda ayollar tadbirkorligi loyihibar uchun qo'shimcha 3,3 trillion so'm ajratiladi. Xususan, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida yana 100 million dollar beriladi. Bunga qo'shimcha ravishda tijorat banklari ham 100 million dollar jalb qilib, mahallalarda o'zini o'zi band qilgan xotin-qizlarga 50 million so'mgacha garovsiz kreditlar ajratadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunga kelib mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini, jumladan, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini ham qo'llab – quvvatlash maqsadida bir qancha qulay shart

<sup>4</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/07/credit/> "Ayol tadbirkorlar uchun banklar tomonidan arzon kreditlar taqdim etilishi rejalashtirilayotgani to'g'risida" ma'lumot.



sharoitlar yaratilmoqda. Bu borada bir qancha Prezident Qaror va Farmonlari hamda maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bularning negizida barcha tadbirkorlarni biznes jarayonlarini rivojlantirish uchun mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qo'llab – quvvatlash chora – tadbirlari, imtiyozli davlat subsidiyalari va shu bilan birgalikda tijorat banklari tomonidan “Har bir oila – tadbirkor” kabi maxsus davlat dasturlari doirasida ajratiladigan past foiz stavkali imtiyozli kreditlar kabi tadbirkorlik jarayonlarini qo'llab – quvvatlash chora – tadbirlari turibdi. Bu imtiyozlarning hammasi albatta mamlakatimizda faoliyat yuritib kelayotgan tadbirkorlik subyektlarining biznes jarayonlarini rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu jarayonlarni yanada rivojlantirish uchun “Har bir oila – tadbirkor” davlat dasturi doirasida faoliyat yuritayotgan yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lum tijorat banklari emas, balki mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan barcha tijorat banklari ham ushbu dastur doirasida shug‘ullanishi, ular faol tarzda tadbirkorlarni bank imtiyozli kredit mahsulotlari uchun jalb etishi, ortiqcha hujjatbozliklarni bartaraf etishi va ushbu borada raqobatbardoshlikni saqlash maqsadida tadbirkorlarning talab va istaklarini o‘rgangan holda bank imtiyozli kredit mahsulotlarini ishlab chiqib, uni davlat dasturi bilan uyg‘unlashtirgan holatda tadbirkorlar e’tiboriga tortiq etsa, yurtimizda tadbirkorlik faoliyati yanada rivojlanib, mamlakatning iqtisodiy qudratini aks ettiruvchi makroiqtisodiy ko‘rsatkich sanalmish, yalpi ichki mahsulot tarkibida tadbirkorlik faoliyati hamda eksport jarayonlari daromadlari ulushi sezilarli darajada o‘sishiga olib keladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. 2018-yil 7-dekabrdagi PQ-4038-sonli qarori “Har bir oila — tadbirkor”;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.01.2023 yildagi PQ-39-son “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo’llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”;
3. <https://lex.uz/acts/-3772869> “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Har bir oila-tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi Qarori;



4. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/07/credit/> “Ayol tadbirkorlar uchun banklar tomonidan arzon kreditlar taqdim etilishi rejalashtirilayotgani to‘g‘risida” ma’lumot.